

3. O'quvchilarning kreativ fikrlash va innovatsion loyihalar bilan shug'ullanishiga sharoit yaratish

4. Jamoatchilik bilan hamkorlikni rivojlantirish – ota-onalar, mahalliy tashkilotlar va maktab bitiruvchilari bilan aloqalarni mustahkamlash

Shunday qilib, maktab menejmentining zamonaviy yondashuvlarini qo'llash nafaqat ta'lif jarayonining samaradorligini oshiradi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shamdi.

Adabiyotlar:

- 1.В.П. Симонов. Педагогический менеджмент: Ноу-хай в образовании: учебное пособие / В.П. Симонов. - М., Высшее образование,
- 2.М. Sharifxo'jaev., Q.Abdullaev. Menejment. Daslik. - Т.: O'qituvchi, 2001.-B.43.
- 3.Л.В.Пергудов, М.Х .Саидов. Менежмент экономика вищего образования. - Т.: Молия, 2001.-B.65.
- 4.Fullan, M. (2014). The Principal: Three Keys to Maximizing Impact.
5. Jossey-Bass.Hargreaves, A., & Shirley, D. (2020).
- 6.Five Paths of Student Engagement. Routledge. OECD (2021).

MILLIY XARAKTER XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXS INDIVIDUALLIGINING O'RNI

University of business and science Pedagogika va psixologiya
kafedrasi katta o'qituvchisi Usmonova Muattar,
psixologiya yo'nalishi 2- bosqich talabasi Hasanboyeva Kamola

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning individual psixologik xususiyatlari orqali milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish haqida so'z boradi. Yozuvchilarning asarlaridagi

qaxramonlar orqali milliy xarakterning o'quvchilar rivojlanishiga ta'siri haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar:shaxs,xarakter,rivojlanish,irodaviy sifat, mustaqillik , tashabbuskorlik,o'spirin

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие национальных черт через индивидуальные психологические черты личности .Через героев в произведениях писателей описывается влияние национального характера на развитие студентов.

Ключевые слова:Личност,характер,развитие,качество воли, самостоятельность,инициативность,юность.

Annotation:This article discusses the development of national traits through the individual psychological traits of the individual .Through the heroes in the writers' works, the influence of national characteron student development is described.

Keywords:Personality, character, development, will quality,independence,inititative, adolescence.

Shaxs xarakteri uning atrofidagi ko‘p sonli ijtimoiy subyektlar – ota-onas, oilaning boshqa a’zolari, o‘qituvchilar, tengdoshlar, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘snilar hamda mahalladoshlarning tarbiyaviy ta’siridagina shakllanmaydi. Xarakterining barqaror va mustahkam bo‘lishiga shaxsning o‘zi ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir o‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘lib, unga ko‘ra dastlab shaxs tomonidan anglangan hamda hali yetarli emas, yoki salbiy deb topilgan xarakter xislatlari aniqlanadi. So‘ngra mavjud ijobiy xislatlarni mustahkamlash, salbiy xislatlarni bartaraf etish, yangi fazilatlarni tarbiyalash maqsadida amaliy harakatlar tashkil etiladi. Mazkur harakatlarning qay darajada samarali bo‘lishi aynan qanday xarakter xususiyatlarini tarbiyalash borasidagi ehtiyojga egalikni aniqlab olinishiga bog‘liq. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini tanqid asosida xarakterda aks etayotgan salbiy xislatlarni ko‘ra va tan olish, iqror bo‘lish muhimdir. Zero, o‘zidagi salbiy xislatlarni ko‘ra olish, iqror bo‘lish shaxsning o‘ziga nisbatan talabchan va mas’uliyatli ekanligini anglatadi. Ana shu talabchanlik va mas’uliyat esa uni o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi. Aksincha, o‘z kamchiliklarini ko‘rmaslik, xarakterda ifodalanayotgan salbiy xislatlarni tan olmaslik shaxsni sustlashtiradi, uning ma’naviy-axloqiy va irodaviy jihatdan o‘sish, dunyoqarashini takomillashtirishga bo‘lgan rag‘batini pasaytiradi.

Klassik va zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rganish, ular mazmuni hamda ilgari surilgan g‘oyalarning o‘spirin-o‘quvchilarda milliy xarakter xislatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ta’sirini baholash bu borada muayyan kamchiliklar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Quyida ular xususida batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Shaxs xarakterida namoyon bo‘ladigan irodaviy xislatlar sirasida mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini tanqidiy baholash hamda mas’uliyatni his qilish kabilar ham muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek xalqiga xos

ijtimoiy turmush tarzi, shaxslararo muloqot, o‘zaro munosabatlarning badiiy talqinlarini tahlil qilish milliy xarakterda aynan ana shu mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini tanqidiy baholash hamda mas’uliyatni his qilish kabi xususiyatlarning yetishmasligi aniqlandi. O‘smir-o‘spirin-o‘quvchilar o‘spirin-o‘quvchilarining kundalik faoliyatlari bilan tanishish, ular bilan suhbatlar tashkil etish jarayonida ham ularning yuqori darajada mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini tanqidiy baholay olish layoqatlariga ega emasliklarining guvohi bo‘lindi. Shuningdek, ular zimmalaridagi ijtimoiy burch va majburiyatlarni bajarishga ham mas’uliyatl yondashmaydilar. Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida mazkur holatni keltirib chiqargan sabablar o‘rganildi. Ma’lum bo‘lishicha, o‘spirin-o‘quvchilarining mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini tanqidiy baholay olish hamda mas’uliyatlilik kabi xislatlarni o‘zlarida to‘laqonli namoyon eta olmasliklari ularga nisbatan quyidagi ijtimoiy-etnik yondashuvning mavjudligi bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi:

Klassik va zamonaviy o‘zbek adabiyotida shaxsda mustaqillik, mustaqil fikrlash va mavjud vaziyatlar yuzasidan mustaqil ravishda qaror qabul qilish xislatlariga ega obrazlarning son jihatdan kamligi. Ko‘p hollarda badiiy asarlarda irodaviy xarakter xislatlaridan biri bo‘lgan – mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish fazilati hukmdorlar, qo‘mondon (lashkarboshi)lar yoki rahbarlar qiyofasidagina aks etadi. Biroq, oddiy aholi, xususan, uning tipik vakillari bo‘lgan yoshlardan xarakterida mustaqillik xislatini ifodalaydigan asarlar deyarli yaratilmagan. Mustaqillik xislatiga ega yoshlarning yorqin vakillari bo‘lgan badiiy qahramonlarni tarixiy asarlardagina uchratish mumkin. Masalan, Oybekning “Navoiy”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” kabi romanlari hamda Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi bosh qahramonlari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi obrazlardagina mustaqil fikrlash va mavjud vaziyatlar yuzasidan qaror qabul qilish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Bu holat har uch qahramonning davlat arbobi, shoh va sulton bo‘lganliklari, ularning tarbiyasi yoshlidan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, yurtni ortidan ergashtiruvchi shaxslar sifatida ularda ma’naviy-axloqiy hamda irodaviy xislatlarning rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilganligini anglatadi.

Yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” asarida yozilishicha, qadimgi forslar, saklar va massagetcilarda o‘g‘il bolalarni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash muhim ijtimoiy talablardan biri bo‘lgan. O‘g‘il bolalar toki 20 yoshta to‘lgunga qadar uch narsaga: otda yurish, kamondan o‘q otish hamda to‘g‘rilik (to‘g‘riso‘zlik)ka o‘rgatilganlar .

Asrlar davomida hukmdorlar va saroy ayyonlarining farzandlari tarbiyasini tashkil etishga tajribali, bilimli shaxslar biriktirilgan. Farzandlarning jismoniy, irodaviy

jihatdan barkamol bo‘lib tarbiyalanishlariga alohida talablar qo‘yilgan. Jumladan, aslzoda oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlar o‘qish va yozishni bilish, shatranj o‘ynash, kamondan o‘q otish, qilichni ishlata bilish, kurash tushish, suzish hamda otda yurish kabilarning puxta o‘zlashtira olishlari talab etilgan.

O‘zbek xalqining etnik psixologiyasiga ko‘ra yoshi kattalar oldida ularga nisbatan yoshi kichik bo‘lgan shaxslar odob saqlashlari, ularning fikrlarini bo‘lmasdan tinglashlari, ularga qarshi gapirmasliklari lozim degan tushuncha qaror topgan. Shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi milliylik turli yoshdagi kishilarning muloqotlari uchun demokratik g‘oyalar ustuvorligining ta’milanishini inkor etadi. Ya’ni, demokratik yondashuvning muhim talabi – muloqot va ijtimoiy munosabatlarda turli yoshdagi shaxslarning fikr-mulohazalarni bildirishda birdek mavqe, huquqqa ega bo‘lishlari tan olinmaydi. Unga ko‘ra yoshlar kattalarning har qanday ijtimoiy jarayonlar, voqeа-hodisalar yuzasidan bildirayotgan fikrlarini tinglashlari, ularning ko‘rsatma, o‘gir va yo‘l-yo‘riqlariga muvofiq ish ko‘rishlari qat’iy talab etiladi. Hatto shaxsiy hayotni qurishda ham o‘zlariga nisbatan tajribalari katta bo‘lgan shaxslarning fikrlariga rioya etishlari lozim. Aynan mana shu talab yoshlarning ijtimoiy o‘zgarishlar va iqtisodiy-madaniy jarayonlar mohiyatini baholash, shuningdek, shaxslararo munosabatlarni tashkil etishda mustaqil yo‘l tuta olmasliklariga olib keladi. Ixtiyoriy vaziyat yuzasidan mustaqil qaror qabul qilishga qiynaladilar, ikkilanadilar, arzimagan qiyinchiliklar oldida ham xavotirga beriladilar, o‘zgalarning yordami, ta’sirisiz mustal ravishda mavjud muammoni hal qilish layoqatiga ega bo‘lmaydilar.

Milliy adabiyotda tashabbuskor shaxslar, shu jumladan, yoshlar obrazlarining yoritilishiga yetarli darajada e’tibor qaratilmaganligi. Bolalar adabiyotining namunalari bo‘lgan ayrim asarlardagina ta’lim muassasasida yoki undan tashqarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish, o‘spirin-o‘quvchilarga xos ijtimoiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muayyan tashabbuslar ilgari surilganligini kuzatish mumkin. O‘spirinlar hayotiga oid badiiy asarlarning deyarli barchasida yoshlar tashabbuskorligi deyarli ko‘zga tashlanmaydi. O‘lmas Umarbekovning “Odам bo‘lish qiyin”, Mirzakalon Ismoiliyning “Farg‘она tong otguncha” kabi asarlarida yoshlar, shu jumladan, o‘spirinlarning jamiyat hayotdagи faol ishtirokлari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Jumladan, badiiy asar qahramoni timsolida namoyon bo‘layotgan mardlik, sabotlilik, rostgo‘ylik, sofдillik kabi xislatlarning o‘spirin-o‘quvchilarda ijobjiy fazilatlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlari yuqoriligiini aniqlash esa qo‘lga kiritiladigan muvaffaqiyatlarni yanada boyitish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘zbekiston 2017.-488 b
- 2.Tolipov O‘., Usmonboyeva U. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyat. – T.: Fan, 2005. – 205.
- 3.Tulenov J., G‘ofurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 253 b.
- 4.Tulenov J., Yusupov K., G‘ofurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo‘nalishlar. – T.: O‘zbekiston, 1993. – 48 b.

Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili 2-bosqich talabasi Xidirova Turg‘unoy

Ilmiy rahbar: Guliston davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi filologiya f.b.f. doktori, dotsent Gulchehra Qo‘yliyeva

Mavzu : Badiiy asar tili. Badiiy asar tilining tasviriy va hissiy xususiyatlari . (Dostoyevskiyning “Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar “ romani tilining obrazliligi)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy asar tili , uning xususiyatlari badiiy asar tilining asarni tushunish va undagi qahramonlar, obrazlar holatini his etalish , tasviriy ifodasini kuchaytirishga naqadar katta hissa qo‘sishni ko‘rib chiqamiz*

Kalit so‘zlar:*Badiiy asar tili , umumxalq tili , adabiy til , badiiy til, hissiy ekspressivligi ta’siri , differensatsiyalanganlik , sochma shakl , tizma shakl , badiiy tilning adabiy til hamda umumxalq tili bilan munosabati , badiiy nutq shakllari , lakonizm , aforizm .*

O‘zbek tilshunosligida har qanday milliy tilni uchga bo‘ladi **1.Umumxalq (jonli)tili.** **2.Adabiy til** **3. Badiiy(poetik til).** Ularning vazifasi, o‘rni va qo‘llanilishiga ko‘ra xususiyatlari ko‘rsatib beriladi. Umumxalq tili jonli so‘zlashuv tili hisoblanib, unga adabiyotshunos olim, prof. Hotam Umurov shunday ta’rif beradi: “*Jonli til — erkinlikni yoqtiradi: sheva ham, varvarizm ham, vulgarizm ham, jargonizm ham, neologizm ham... uning joni-tani bo‘lib xizmat qilaveradi, uning chek-chegarasi bo‘lmaydi*”[1.144]. Shunga ko‘ra, umumxalq tili muayyan grammatik qoidalarga amal qilmaydi va ushbu xususiyat orqali u adabiy tildan farqlanadi. Badiiy tilni esa umumxalq tilining bir namunasi deya olishimiz